

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XILQNING NAMOYON BO'LISHI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna

KDPI v/b dotsent., psix.f.f.d

Rasulova Rayhona. KDPI2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlik va uni oldini olishga qaratilgan. Bolalarda agressiyaning kelib chiqish sabablari, kuzatiladigan muammolar va psixologik maslahatlar berish haqida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Agressiya, agressiv xatti-harakatlar, qo'rquv, qaysarlik.

MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN PRESCHOOL CHILDREN

Khalbayeva Gulnoza Arshidinovna

Kattakurgan State Pedagogical Institute, acting associate professor,

Ph.D. in psychology

**Rasulova Rayhona. 2nd year student of Kattakurgan State Pedagogical
Institute**

Abstract: The article analyzes the requirements for the physical, mental, social and emotional development of preschool children aged 6–7. The specific features of children of this age group in the process of preparing for school, the scientific foundations of the pedagogical approach and comprehensive support for development are considered.

Keywords: Preschool education, 6–7 years, physical development, mental development social development, pedagogical requirements, emotional development.

ПРОЯВЛЕНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Халбаева Гульноза Аршидиновна

доцент, Каттакурганский государственный педагогический
институт,

Расулова Райхона. Студентка 2 курса Каттакурганского
государственного педагогического института

Аннотация: В статье анализируются требования к физическому, умственному, социальному и эмоциональному развитию детей дошкольного возраста 6–7 лет. Рассматриваются специфические особенности детей этой возрастной группы в процессе подготовки к школе, научные основы педагогического подхода и комплексная поддержка развития.

Ключевые слова: Дошкольное образование, 6–7 лет, физическое развитие, умственное развитие, социальное развитие, педагогические требования, эмоциональное развитие.

Zamonaviy jamiyatda bolalar xulq-atvoridagi muammolar orasida agressivlik alohida e'tibor talab etadigan psixologik va pedagogik masala hisoblanadi. Agressiv bola tushunchasi boshqalarga nisbatan jismoniy yoki psixologik zarar yetkazishga qaratilgan, ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlarni muntazam namoyon etuvchi bolalarni ifodalaydi. Bunday xulq-atvor bolaning shaxsiy rivojlanishiga, tengdoshlar bilan munosabatlariga hamda ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalardagi agressiv xatti-harakatlar biologik omillar, oilaviy muhit, ijtimoiy sharoit, tarbiya uslublari hamda emotsional holatlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli agressivlikni faqat intizomiy muammo sifatida emas, balki murakkab psixologik hodisa sifatida o'rganish zarur. Mazkur maqolada agressiv bolalarning xulq-atvor xususiyatlari, ularning kelib chiqish sabablari va bunday holatlarning oldini olish hamda korreksiya qilish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Agressiya lotincha "hujum" — tirik organizmlarga xos bo'lgan xatti-harakat turi bo'lib, boshqa individlarga nisbatan hujum qilish, ularga zarar yetkazish yoki tahdid qilish orqali namoyon bo'ladi, bu esa o'zini himoya qilish, g'azab, qo'rquv, hududni, o'ljani yoki sherikni himoya qilish, hokimiyatga intilish kabi sabablar bilan bog'liq bo'lib, psixologiya va sotsiologiyada muhim mavzu hisoblanadi.

Агрессия – murakkab hodisa bo‘lib, uni tushunish va nazorat qilish psixologiya, sotsiologiya va biologiya fanlarining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Nazariyalar: Instinkt nazariyasi: Агрессия tug‘ma instinkt deb hisoblaydi (Konrad Lorens). Frustratsiya-agressiya nazariyasi: Frustratsiya agressiyaga olib keladi (Dollard nazariyasi). Ijtimoiy-kognitiv nazariya: Агрессия ijtimoiy tajriba orqali o‘rganiladi (Bandura nazariyasi). Ijtimoiy munosabatlar, hokimiyatga intilish, guruhda bo‘ysunish tizimini o‘rnatish. Namoyon bo‘lishi: Jismoniy zarba berish (urish, tepish). Verbal tajovuz (haqoratlash, tahdid qilish, chaqish). Passiv agressiya (o‘zini injiqlik bilan tutish, yashirin qarshilik ko‘rsatish). Агрессиани boshqarish: Агрессиани boshqa faoliyat bilan almashtirish (sport, ijod), ijtimoiy me‘yorlar va an‘analardan foydalanish orqali kamaytirish mumkin. Boshqa tirik organizmga zarar yetkazish, qo‘rqitish yoki uni bo‘ysundirishga qaratilgan harakatlar majmui. Boshqa tirik organizmga zarar yetkazish, qo‘rqitish yoki uni bo‘ysundirishga qaratilgan harakatlar majmui. Агрессив xulq - shaxsning ma‘naviy buzqlikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta‘sir o‘tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g‘ayriinsoniy xususiyat. Агрессив xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo‘lishi ko‘pincha ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda yuz beradi. Shaxsning o‘ziga qaratilgan tajovuzkorlik “autoagressiya” (bunday holat shaxsdagi patologik o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi) deb ataladi. O‘z joniga qasd qilish, o‘ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko‘rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo‘ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan shaxslarda Агрессив xulq kuchli bo‘ladi. Агрессив xulq nafaqat alohida shaxslar, balki butun-butun davlatlarga ham xos bo‘lishi mumkin.

Bolalarda jahldorlik qanday paydo bo‘ladi? Kichkintoylarning umidsiz yig‘lashida ifodalangan g‘azabi ya‘ni: Bolaning fiziologik ehtiyojlari qondirilmasligi, g‘azabning paydo bo‘lishi va tengdoshga jismoniy hujum 1,2,3-5 yoshli bolalarda o‘yinchoqlarga ega bo‘lish uchun mojarolar. Agar bu yoshdagi ota-onalar bolaning xulq-atvoriga toqat qilmasalarbuning natijasida jahldorlikni ramziy shakllari shakllanishi mumkin: yig‘lash, itoatsizlik, o‘jarlik va boshqalar.

O'g'il bolalarda g'azablanish maktabgacha yoshdagi qizlarda yig'lash chiyillash qaysarlik.

Bu yoshdagi o'g'il bolalar qizlarga qaraganda ko'proq tajovuzkor tendentsiyalarni namoyon etadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyaning yuzaga kelishi quyidagi omillarga bog'liq: Birinchi o'rinda oiladagi muhitning nosog'lomligi, oilada mehr-muhabbatning yetishmasligi sababsiz janjallar va nizolardir. Farzand bilan yetarlicha vaqt o'tkazmaslik uning muvaffaqiyatiga befarqlik. Kattalarning munosabatlari qo'pol so'zlar, ko'p buyruq berish, arzimagan narsaga kamsitish, farzandini boshqa oila farzandi bilan taqqoslash. Televideniya : ko'rsatuvlar, jangari filmlar, ayrim multfilimlar. Bolalarda agressivlik xatti-harakatlarni tuzatish bo'yicha ishlar bular : Muammoni aniqlash bolaning ahvoriga tashxis qo'yish, Xulq -atvorda og'ishlarni keltirib chiqaradigan sabablarni aniqlash, Huquqbuzarlikni bartaraf etish usullarini aniqlash, Agressiyadan qutulish uchun ishlash, Bolada g'azablanishga nima sabab bo'lishini to'g'ri aniqlash muammo psixologik yoki jismoniy ekanligini aniqlash va tuzatishning samarali usullarini tanlash ma'lum bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassisning vazifasidir.

Agressiyani oldini olish sabablari stressni kamaytirish, ijobiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, oilaviy qo'llab-quvvatlash, sport bilan shug'ullanish, san'at va badiiy ijod orqali o'zini ifoda etish, hamda psixologik yordam olish kabi omillarga bog'liq bo'lib, bu barcha jihatlar sog'lom shaxs rivojlanishiga yordam beradi. Agressiyani oldini olish uchun psixologik, ijtimoiy va ta'limiy yondashuvlar qo'llaniladi, jumladan: individual psixoterapiya (art-terapiya, ijodkorlik), stressni boshqarish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, oilaviy muhitni yaxshilash, empatiya (hamdardlik)ni oshirish, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi manbalardan uzoq turish va sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish, sababi bu muammo shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, uni oldini olishning sabablari esa xavfsizlikni ta'minlash, sog'lom jamiyat yaratish va inson munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan. Stressni kamaytirish usullarini o'rganish (meditatsiya, yoga, sport). O'z hissiyotlarini tushunish va boshqarish san'at orqali ichki hissiyotlarni ifoda etish noo'rin fikrlash tarzini o'zgar tirish.

Oilaviy munosabatlarni yaxshilash sevgi, ishonch va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish muammolarni zo'ravonliksiz hal qilish yo'llarini o'rgatish, empatiyani rivojlantirish boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishga o'rgatish. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentdan cheklash teleko'rsatuvlar, filmlar, o'yinlar ta'sirini nazorat qilish sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish sport, to'g'ri ovqatlanish. Agressiya sabablarini tushuntirish o'smirlar va kattalarda uning sabablarini tushunishga yordam berish. Nima uchun agressiyani oldini olish muhim? Shaxsiy va jamoat xavfsizligini ta'minlash, sog'lom ijtimoiy muhit yaratish, jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlash, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash.

Xulosa o'rnida, agressiv bola - bu o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiyinchilikka duch keladigan, nizoli vaziyatlarda zo'ravon yoki tajovuzkor xatti-harakatlar orqali javob beradigan shaxsdir. Agressiv xulq-atvor biologik omillar (temperament va asab tizimi xususiyatlari), psixologik omillar (emotsional beqarorlik, past o'zini nazorat qilish) hamda ijtimoiy omillar (oiladagi muhit, tarbiya uslubi, tengdoshlar ta'siri) ta'sirida shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, agressiv xatti-harakatlar o'z vaqtida aniqlanib, to'g'ri psixologik va pedagogik yondashuv qo'llanilmasa, ular barqaror xulq modeliga aylanishi mumkin. Shu sababli agressiv bolalar bilan ishlashda erta diagnostika, emotsional nazoratni rivojlantirish, ijobiy ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va oila hamda ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bunday kompleks yondashuv bolaning sog'lom psixik rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Nishonova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Furmanov I.A Bolalarning tajovuzkorligi. Psixodiagnostika va tuzatish. Minsk, 1996 yil
3. Zamonaviy ta'limda psixologiya. -T., 2023-yil